

**TIJORAT BANKLARINING DEPOZIT SIYOSATI VA PORTFELI:
RIVOJLANISH, TAHLIL VA TAKOMILLASHTIRISH****Tillayev Habibullo***Andijon davlat texnika instituti**Muhandislik iqtisodiyoti va boshqaruv
fakulteti “Bank ishi va audit” yo’nalishi**4-kurs K-115-21 guruh talabasi**Ilmiy rahbar: Sh.A. Usmonov*

Annotatsiya: Tijorat banklari uchun depozit siyosatini to’g’ri shakllantirish va portfelini samarali boshqarish bank moliyaviy barqarorligining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Bank resurs bazasining katta qismini tashkil etuvchi depozitlar banklarning kreditlash imkoniyatlarini kengaytiradi, moliyaviy vositachilik faoliyatini kuchaytiradi va iqtisodiyotga zarur resurslarni yetkazib beradi. Bugungi kunda O’zbekiston bank tizimida depozit siyosatini rivojlantirish, mijozlar ehtiyojlariga mos depozit turlarini kengaytirish va portfel sifatini yaxshilash bo’yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu maqolada tijorat banklarining depozit siyosatining mazmuni, depozit portfeli tarkibi, rivojlanish tendensiyalari, mayjud muammolar va ularni bartaraf etish yo’llari ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, depozit siyosatini takomillashtirish bo’yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so’zlar: tijorat banklari, depozit siyosati, depozit portfeli, bank resurslari, kreditlash, mijozlar ishonchi, foiz siyosati, moliyaviy barqarorlik, raqobatbardoshlik, bank mahsulotlari, xizmat sifati, strategik rivojlanish.

Аннотация: Формирование эффективной депозитной политики и управление депозитным портфелем являются одними из ключевых факторов финансовой устойчивости коммерческих банков. Депозиты, составляющие основную часть ресурсной базы банков, позволяют расширять кредитные возможности, усиливать финансовое посредничество и обеспечивать



экономику необходимыми ресурсами. В настоящее время в банковской системе Узбекистана реализуются меры по развитию депозитной политики, расширению ассортимента депозитных продуктов, ориентированных на потребности клиентов, и повышению качества депозитного портфеля. В статье научно и практически анализируются сущность депозитной политики коммерческих банков, структура депозитного портфеля, тенденции развития, существующие проблемы и пути их решения. Также разрабатываются практические рекомендации по совершенствованию депозитной политики.

Ключевые слова: коммерческие банки, депозитная политика, депозитный портфель, банковские ресурсы, кредитование, доверие клиентов, процентная политика, финансовая устойчивость, конкурентоспособность, банковские продукты, качество обслуживания, стратегическое развитие.

Abstract: The formation of an effective deposit policy and the management of the deposit portfolio are among the key factors of financial stability for commercial banks. Deposits, which make up the majority of the banks' resource base, expand lending capabilities, strengthen financial intermediation, and provide the economy with necessary resources. Currently, measures are being implemented in Uzbekistan's banking system to develop deposit policies, expand customer-oriented deposit products, and improve the quality of deposit portfolios. This article scientifically and practically analyzes the essence of commercial banks' deposit policies, the structure of their deposit portfolios, development trends, existing problems, and solutions. Practical recommendations are also proposed to improve deposit policy.

Keywords: commercial banks, deposit policy, deposit portfolio, bank resources, lending, customer trust, interest policy, financial stability, competitiveness, banking products, service quality, strategic development.

KIRISH

Tijorat banklarining barqaror va samarali faoliyat yuritishi ko'p jihatdan ularning depozit siyosati va portfelinii to'g'ri tashkil etishiga bog'liq. Depozitlar bank resurs bazasining asosiy qismi bo'lib, banklarning kreditlash faoliyati, moliyaviy vositachilik imkoniyatlari va iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash salohiyatini belgilab



beradi. Shu bois, tijorat banklari o'z depozit siyosatini mijozlar ehtiyojlari, bozordagi raqobat va makroiqtisodiy sharoitlardan kelib chiqib shakllantirishi lozim. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bank tizimini rivojlantirish va moliyaviy xizmatlar qamrovini kengaytirishga qaratilgan qaror va farmonlari asosida tijorat banklari tomonidan depozit mahsulotlari takomillashtirilmoqda, yangi xizmat turlari joriy etilmoqda, mijozlarga qulay shart-sharoitlar yaratishga e'tibor kuchaytirilmoqda. Xususan, muddatli, jamg'arma, talab qilib olinguncha depozitlar va maxsus aksiyali omonatlar orqali aholi va xo'jalik subyektlarining bo'sh mablag'larini banklar tizimiga jalg qilish choralar ko'rilmoxda. Shunga qaramay, amaliyotda ayrim banklarda depozit mahsulotlarining cheklanganligi, foiz stavkalarining bozordagi talab va taklifdan orqada qolishi, marketing strategiyalarining sustligi, mijozlar bilan ishslash sifati va hududiy qamrovning yetarli emasligi kabi muammolar mavjud. Bu esa banklarning depozit portfeli hajmi va sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu maqolada tijorat banklarining depozit siyosati va portfeli tarkibi, rivojlanish holati, mavjud muammolar, ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tijorat banklarining depozit siyosati va portfelini takomillashtirish masalasi bo'yicha o'zbekistonlik va xorijiy olimlar tomonidan qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Iqtisod fanlari doktori Sh.A. Nurmuxamedov o'z tadqiqotlarida tijorat banklarining barqarorligi depozit siyosatini to'g'ri belgilashga, mijozlarning ishonchini oshirish va uzoq muddatli depozit mahsulotlarini rivojlantirishga bevosita bog'liqligini asoslاب bergan. Muallif, mijozlarni faol jalb etish uchun bank xizmatlarini diversifikatsiya qilish, foiz siyosatini bozordagi real shartlarga moslashtirish zarurligini ta'kidlaydi. Iqtisod fanlari nomzodi D.S. Ergashev esa tijorat banklarining depozit portfelini boshqarishda portfel sifati va tuzilmasiga e'tibor qaratish, depozitlarning muddatlari va valyutalar bo'yicha diversifikatsiyasini ta'minlash, shuningdek, marketing strategiyasini kuchaytirish bo'yicha ilmiy tavsiyalar bergan. U o'z tadqiqotida banklarning depozit portfelini faqat hajm bo'yicha emas, balki sifat jihatidan ham tahlil qilish zarurligini ko'rsatgan.



Xorijiy olimlardan J. Heffernan va P. Molyneux depozit siyosatini strategik boshqarish, mijozlar bilan uzoq muddatli aloqalarni mustahkamlash, foiz siyosatini raqobatbardosh darajada belgilash orqali banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash usullarini ishlab chiqqanlar. Ularning fikriga ko'ra, zamonaviy banklar depozit siyosatini mijoz markaziga qaratilgan tarzda shakllantirishi lozim.

Mazkur maqolada quyidagi ilmiy-uslubiy metodlardan foydalanildi:

- Ilmiy tahlil va umumlashtirish usuli – mavjud ilmiy va amaliy manbalarni o'rghanish va umumlashtirish;
- Taqqoslash usuli – mahalliy va xorijiy banklarning depozit siyosatini solishtirish;
- Statistik tahlil – tijorat banklarining depozit portfeli ko'rsatkichlarini tahlil qilish;
- Ekspert baholash usuli – soha mutaxassislarning fikr-mulohazalari asosida takliflar ishlab chiqish.

Ushbu metodlar asosida tijorat banklarining depozit siyosatini rivojlantirish va portfelini takomillashtirish imkoniyatlari har tomonlama o'rGANildi.

NATIJALAR

Tijorat banklarining depozit siyosatini tahlil qilish natijalari banklarning so'nggi yillardagi faoliyati mazkur yo'nalishda ma'lum yutuqlarga erishganini ko'rsatmoqda. Xususan, banklar tomonidan mijozlarga taklif etilayotgan depozit mahsulotlari turlari kengayib, omonatlarni onlayn va mobil ilovalar orqali boshqarish imkoniyatlari yaratilgan. Bu esa aholining bank tizimiga bo'lgan qiziqishini oshirib, depozit portfelining o'sishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, 2022–2024-yillar davomida tijorat banklarining depozit portfeli hajmi barqaror o'sishni namoyon etgan va yillik o'sish sur'ati o'rtacha 15–18 foizni tashkil etgan. Depozit portfelining tarkibida muddatli depozitlar ulushi yuqori bo'lib, bu banklarning uzoq muddatli resurslar bilan ta'minlanishini ta'minlamoqda. Shuningdek, banklar tomonidan foiz stavkalari bo'yicha takliflar ko'payib, raqobat muhiti shakllanmoqda. Biroq, tahlillar shuni ham ko'rsatmoqdaki, ko'plab tijorat banklari depozit mahsulotlarini takomillashtirishda



hali yetarli darajada faoliyat olib bormayapti. Ayrim banklarda taklif etilayotgan depozit turlari mijozlar ehtiyojlariga to'liq mos kelmayapti, foiz siyosati esa bozordagi o'zgarishlarga mos ravishda tezkor ravishda yangilanmayapti. Bundan tashqari, banklarning depozit portfeli tuzilmasi bir xil bo'lib, mahsulotlar diversifikatsiyasi yetarli emasligi aniqlanmoqda. Hududlar kesimida olib borilgan tahlillar ham hududiy tafovutlarni ochib bermoqda. Xususan, yirik shaharlarda depozit portfeli ko'rsatkichi yuqori bo'lsa, chekka hududlarda bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari cheklanganligi sababli omonatchilar soni nisbatan kam. Bu holat banklar oldida infratuzilmani rivojlantirish, xizmatlarni hududlar bo'yicha kengaytirish zaruratinini yuzaga keltirmoqda. Shuningdek, mijozlar bilan aloqa va ishonch muhitini kuchaytirish, axborot-tushuntirish va marketing faoliyatini rivojlantirish orqali depozit portfelini yanada kengaytirish imkoniyatlari mavjud. Banklar tomonidan depozit siyosatini takomillashtirish orqali resurs bazasini mustahkamlash va moliyaviy barqarorlikni oshirish imkoniyatlari keng ekanligi aniqlanmoqda.

MUHOKAMA

Tijorat banklarining depozit siyosati va portfeli bo'yicha o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, so'nggi yillarda banklar o'z resurs bazasini mustahkamlash yo'lida qator chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Xususan, depozit mahsulotlarining taklif etilishi, foiz stavkalarining bozordagi talab va taklifga moslashtirilishi, yangi texnologiyalar yordamida masofaviy omonat xizmatlarining joriy qilinishi banklarning depozit portfellarini kengaytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Biroq, bu borada hal etilishi lozim bo'lgan qator muammolar ham mavjud. Birinchidan, tijorat banklarining ko'pchiligidagi depozit siyosati yetarli darajada strategik yondashuv asosida olib borilmayapti. Ayrim banklar hali ham an'anaviy depozit turlariga tayanib, yangi va mijozlarga moslashtirilgan mahsulotlarni taklif qilishda sustlik qilmoqda. Bu esa mijozlar ehtiyojlarini to'liq qondirmsandan, banklar o'rtasida raqobatbardoshlikni kamaytiradi. Zamonaviy banklar esa o'z mijozlariga individual yondashuv asosida mahsulotlar va xizmatlar taklif etishi, depozit siyosatini bozor tendensiyalariga mos holda doimiy yangilab borishi lozim. Ikkinchidan, foiz siyosati ham ko'plab banklarda muammoli bo'lib qolmoqda. Raqobatbardosh bo'limgan yoki bozordagi



o'zgarishlarga moslashtirilmagan foiz stavkalari mijozlar qiziqishini pasaytiradi. Banklar foiz siyosatini shakllantirishda nafaqat daromadlilik, balki mijozlarning ishonch va talablarini ham inobatga olishi kerak. Bu esa bankning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Uchinchidan, banklarning depozit portfeli tarkibida ko'pincha qisqa muddatli depozitlar ustunlik qiladi. Bu holat banklarning uzoq muddatli moliyalashtirish imkoniyatlarini cheklaydi. Shuning uchun banklar uzoq muddatli depozitlarni ko'paytirish strategiyasini ishlab chiqishi, mijozlarni uzoq muddatli omonatlarga jalg qilish uchun rag'batlantirish tizimini kuchaytirishi lozim. To'rtinchidan, hududiy qamrov darajasida ham muammolar mavjud. Yirik shaharlarda bank xizmatlari yaxshi rivojlangan bo'lsa-da, chekka hududlarda bu jarayon sust. Banklar hududlarda filiallar ochish, mobil bank xizmatlarini kengaytirish va raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash orqali hududiy tengsizlikni bartaraf etishi zarur. Yuqorida muammolarni bartaraf etish uchun tijorat banklariga quyidagilar tavsiya etiladi:

- depozit mahsulotlarini diversifikatsiya qilish va mijozlarga moslashtirish;
- foiz siyosatini raqobatbardosh va bozordagi o'zgarishlarga moslashtirish;
- uzoq muddatli depozitlarni ko'paytirish bo'yicha strategiyalar ishlab chiqish;
- bank infratuzilmasini hududlarda kengaytirish va masofaviy xizmatlarni rivojlantirish;
- moliyaviy savodxonlikni oshirish va mijozlarni omonatlarga jalg etish bo'yicha targ'ibot ishlarini kuchaytirish.

Ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali tijorat banklari depozit siyosatini yanada rivojlantirishi, depozit portfeli hajmi va sifatini oshirishi, bank tizimining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashi mumkin.

XULOSA

O'zbekiston tijorat banklarining depozit siyosati va portfeli bo'yicha olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, so'nggi yillarda banklar tomonidan depozit bazasini kengaytirish bo'yicha qator ijobjiy natijalarga erishilgan. Banklar tomonidan omonat turlarining kengaytirilishi, foiz stavkalarining taklif etilishi, raqamlı



xizmatlarning rivojlanishi depozit portfelining hajmi va sifati oshishiga xizmat qilmoqda. Biroq, mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanilmayotgani, mijozlarga moslashtirilgan mahsulotlar va xizmatlarning yetishmasligi, foiz siyosatining sustligi, hududiy qamrov va moliyaviy savodxonlik darajasining pastligi kabi kamchiliklar mavjud bo'lib, ularni bartaraf etish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Tijorat banklari depozit siyosatini takomillashtirish va portfelini mustahkamlashda quyidagi asosiy yo'naliishlarga e'tibor qaratishi zarur:

- depozit mahsulotlarini diversifikatsiya qilish va mijoz ehtiyojlariga moslashtirish;
- foiz siyosatini bozordagi talab va taklifga mos ravishda doimiy takomillashtirib borish;
- uzoq muddatli va barqaror depozitlarni ko'paytirish uchun rag'batlantirish strategiyalarini ishlab chiqish;
- bank infratuzilmasini hududlarda kengaytirish, masofaviy xizmatlarni rivojlantirish va onlayn platformalar imkoniyatlaridan to'liq foydalanish;
- moliyaviy savodxonlikni oshirish, aholiga depozitlarning afzallikkleri va imkoniyatlari haqida keng axborot berish.

Ushbu tavsiyalar asosida tijorat banklari o'z depozit siyosatini samarali yo'lga qo'yishi, depozit portfelining hajmi va sifatini oshirishi, moliyaviy resurslarini kengaytirishi mumkin. Bu esa banklarning iqtisodiyotda faol ishtirokini kuchaytirib, mijozlar ishonchini mustahkamlashga va bank tizimining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-martdagি PQ-4621-sonli Qarori "Bank xizmatlari ko'lamin kengaytirish va moliyaviy inklyuziyani rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida". Rasmiy hujjatlar portalı – lex.uz. <https://lex.uz/docs/4770824> (10.05.2025-yil holatiga ko'ra).
2. □ Nurmuxamedov Sh.A. O'zbekistonda bank xizmatlari bozorini rivojlantirish strategiyasi. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020. – 234 b.



3. Ergashev D.S. Tijorat banklarining depozit siyosati va portfelini boshqarish masalalari. – Toshkent: Fan, 2022. – 192 b.
4. Heffernan S., Molyneux P. The Economics of Banking. – London: John Wiley & Sons, 2019. – 335 p.